PEDAGOGIK NUTQ MADANIYATINI NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

ANDIJON PEDAGOGIKA TEXNIKUMI MAXSUS FAN O'QITUVCHISI

QADIROVA SURMAXON KOMILJON QIZI

Annotatsiya:

Mazkur maqolada pedagogik nutq madaniyatining nazariy va amaliy asoslari, uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni va pedagog kasbiy faoliyatidagi ahamiyati yoritilgan. Pedagog nutqi o'quvchi yoki tarbiyalanuvchiga bilim berish, fikrni aniq va tushunarli yetkazish, muloqot o'rnatish hamda shaxslararo munosabatlarni samarali tashkil etishning muhim vositasi sifatida tahlil qilingan. Maqolada pedagogik nutqning mazmuni, to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyligi, ravonligi, ifodaliligi, sofligi va ta'sirchanligi kabi asosiy mezonlari ochib berilgan. Shuningdek, pedagog nutqida adabiy til me'yorlariga rioya qilish, ovoz ohangi, talaffuz, so'z boyligi, nutq sur'ati va pedagogik muloqot madaniyatining ahamiyati ko'rsatib berilgan. Pedagogik nutq madaniyatini rivojlantirishning amaliy usullari, jumladan, muntazam kitob o'qish, nutqiy mashqlar bajarish, suhbat va munozaralarda faol ishtirok etish, o'z nutqini tahlil qilish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar:

Pedagogik nutq, nutq madaniyati, pedagogik muloqot, nutqiy kompetensiya, adabiy til me'yorlari, o'qituvchi nutqi, tarbiyachi nutqi, kommunikativ kompetensiya, nutqning aniqligi, nutqning ravonligi, nutqning ifodaliligi, nutqning ta'sirchanligi, pedagogik mahorat, muloqot madaniyati.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimida pedagogning kasbiy kompetensiyasi, pedagogik mahorati va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi nafaqat pedagogning o‘z fanini chuqur bilishiga, balki o‘z bilim va fikrlarini o‘quvchi hamda tarbiyalanuvchilarga aniq, tushunarli, ravon va ta’sirchan tarzda yetkaza olishiga ham bog‘liq. Shu jihatdan pedagogik nutq madaniyati pedagogning kasbiy faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Nutq insonlar o‘rtasidagi muloqotning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, pedagogik faoliyatda uning ahamiyati yanada ortadi. Chunki pedagog har kuni turli yoshdagi o‘quvchi va tarbiyalanuvchilar, ota-onalar hamda hamkasblar bilan muloqotga kirishadi. Pedagogning qanday so‘zlardan foydalanishi, fikrni qanday ifodalashi, ovoz ohangi, talaffuzi, nutq sur’ati va muomala uslubi ta’lim oluvchilarning pedagogga bo‘lgan munosabatiga hamda ta’lim jarayonining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik nutq madaniyati, avvalo, adabiy til me’yorlariga rioya qilish, so‘zlarni o‘z o‘rnida va mazmuniga mos ravishda qo‘llash, fikrni mantiqiy izchillikda bayon etish, ortiqcha va noo‘rin so‘zlardan foydalanmaslik, tinglovchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish bilan belgilanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachining nutqi bolalarning nutqiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bola ko‘pincha kattalarning nutqini tinglash va ularga taqlid qilish orqali yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi, gap tuzishni, to‘g‘ri talaffuz qilishni va muloqotga kirishishni o‘rganadi.

ASOSIY QISIM

Nutq, so‘zlash, bayon qilish qobiliyati Alloh taoloning insoniyatga bergan ulug‘ ne’matlaridan biri hisoblanadi. Nutq faqatgina insonlarga boshqa jonzotlardan farqli ravishda berilgan. Insonlar, Alloh yerda yaratgan jonzotlar ichida nutq ato etilgan, mukammal ovoz chiqaradigan yagona jonzotdir. Insonlar turli tovushla rorqali so‘z, so‘z orqali esa gap tuzadilar, o‘z xis-tuyg‘ularini boshqa jonzotlardan farqli ravishda

nutq orqali bayon qiladi. Til orqali ijtimoiy munosabatga kiradi. Til so‘zlashuv qurolidir, so‘zlashdan murod anglatishdir. *Til- aloqa quroli, til-hayot ko’zgusi, til ma’naviyat belgisi bo’lib, insonni komilikka yetishidagi omildir*.

Biz har kuni, har lahzada so‘zlashib atrofimizdagi odamlar bilan muloqotda kirishamiz. Bizga bu uchun oddiy narsadek bo‘lib qolgan. Lekin tafakkur qilib ko‘rsak bu jarayon juda murakkabdir. Bu jarayonda insonning aqlidan tortib kichik paytlargacha ishtirok etadi. Bulardan biri o‘z vazifasini bajara olmasa nutq mukammal bo’lmaydi. Alloh insonga bu ne’matni bermaganida hayotni tasavvur qilish qiyin bo‘lardi. Biz, nutqni inson hayotida katta ahamiyat kasb etishini bilib oldik. Endi nutq muloqoti paytida har xil odob me’yorlaridan chiqmaslik uchun nutq madaniyati nima ekanligini bilib olishimiz kerak.

Talaffuz , urg’u, grammatika, so’z qo’llash kabi og’zaki va yozma adabiy til me’yorlarini egallash, turli sharoitlarda til vositalaridan nutq mazmuniga mos holda foydalana olish mahorati nutq madaniyati deb yuritiladi. Nutq madaniyati o’sha adabiy me’yorlarga mos va xos ravishda so’zlash demakdir.

Madaniyatli kishining ajralmas xususiyati, uning nutq madaniyati yuqori darajada ekanligidir. Har bir inson o‘z nutqini yaxshilab, to‘g‘irlab borishi kerak.

So‘zlovchi talaffuzda, so‘z shakllaridan to‘g‘ri foydalanib jumlalarni tuzishda xato qilmaslikka harakat qilishi kerak.

Nutq odobi til ilmning yosh sohasi hisoblanib, rivojlanib kelmoqda. Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo‘lib, u jamiyat fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji taraqqiy etadi.

Til deb nutq nazarda tutilgan bo’lib, juda muhim vazifalarni bajaruvchi kuchli quroldan foydalanish jarayoni, borliq, tafakkur, ong kabi munosabatlarda ko‘rinadi. Nutq harakatdagi til munosabatlarda ham ko‘rinadi va nutq a’zolarining harakati jarayonida hosil bo‘lib, ma’lum bir tilshunoslik me’yorlar, etikaviy va estetikaviy talablar bilan bog’liq bo‘lgan tushuncha hisoblanadi. Hozirgi kunda nutq madaniyati

tushunchasi bilan yuritiladigan hodisadir va ilmiy muammoni juda katta mazmunga ega. Nutq madaniyati til didini tarbiyalashga xizmat qiluvchu vosita hamdir.

Hozirgi zamonda " nutq madaniyati" atamasi tilshunoslikda uch xil hodisaning nomi sifatida qo‘llanmoqda. Ular: 1) madaniy nutqning, ya’ni nutqiy hodisaning nomi; 2) madaniy nutq tushunchasi bilan bog‘liq va nutq madaniyati deb yuritiluvchi ilmiy muammoning nomi; 3) nutq madaniyati muammosini o‘rganish bilan maxsus shug‘ullanuvchi sohaning tilshunoslik fani olimining nomi. Keltirilgan bu hodisalarni adashtirib yobormasligimiz darkor.

Nutq madaniyati notiqlik san’ati bilan bog‘liqdir. Notiqlik bu - so‘z san’ati, bu - so‘z san’ati bo‘lganda ham ohangdan libos kiyib talaffuz bilan jilolangan so‘z san’atidir. Nutqni singdirish bog‘cha va maktablarda pedagoglarning bosh vazifasidir. Pedagoglar bolalarni o‘quv zo‘nasiga kirgandan to mashg‘ulotlar tugagunicha nutq madaniyatini shakllanishi uchun xizmat qilishi lozimdir.

Taniqli tilshunos olim *Nizomiddin Mahmudov* " Nutq madaniyati" haqida aytgan so‘zlari bilan tanishsak; “ *Nutq madaniyati bilan maktabgacha ta’lim tizimi doim ish olib borishi lozim. Shuni hiosbga olish kerakki, boshqa kerakli fanlar singari nutq madaniyati ham juda muhim kerakli fan hisoblanadi*.” U har qanday kasb egasiga juda kerakli qurol hamdir. O’zbek nazariy bilimlariga ko’ra chiroyli nutq bu nutq madaniyati demakdir. Nutq san’atining asosiy vazifalari; Insonlarda madaniy nutq malakasini shakllantirish, ya’ni adabiy til umumlik mezonlarga mavjud qoidalarga ko’ra nutq ustida ishlash ko’nikmasini shakllantirishdir. Shuningdek, meyoriy nutqni nutqni targ’ib qilish va baholash ham uning vaziasi hisoblanadi. Nutq madaniyati fani tilning barcha yo’nalishlari bo‘yicha adabiy til normalari tadqiq qiladi. Bu esa, hodisalarning adabiy normasini mustahkamlashga tavsiyalar beradi. Lekin, bu norma adabiy til normalarini yaratmaydi, norma sifatida ba’zi hodisalarni majburan kiritmaydi.

Nutqiy etiket - go‘zal va nafis nutq sezgisi hamda unga azali ixlosu e’tiqod an’anasining ibtidosi ayniqsa, ko‘hna sharqda olamida juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Har bir xalq uchun til va nutq juda muhimdir. Ular xalqlarning ko‘rki hisoblanadi. *Kaykovus* farzandiga o’git beradi “Qobusnomada” " Ey farzand, so’zning yuzini va orqasin bilg‘il va ularga rioya qilg‘il, har na so‘z desang yuzi bila degil, to suxang‘oyi bo‘lgaysan. Agar so‘z aytib, so‘zni ma’nosini bilmas. Suxango‘y shul kishi bo‘lgayki, ul har so‘z desa, unga ma’qul bo‘lgay va xalq ham har so‘z desa, unga ma’qul bo‘lgay. Bunday kishilar oqillar qatoriga kirg‘ay, yo‘q ersa, ul inson suratida mavjud bo‘lg‘an bir hayvondur". Bundan ko‘rinibdiki inson har sozlagan so‘zlariga e’tiborli bo‘lib, ma’nosini anglab yetib gapirishi kerak. So‘zlagan so‘zlarida ma’no yo‘q bo‘lsa, hayvondan farqi qolmasligini tushunib yetishimiz mumkin.

Buyuk ajdodlarimiz , *Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy* kabi ulug‘ ajdodlarimiz insonlarning nutqi hayotdagi o‘rni haqida juda ko‘p fikrlarni bayon qilishgan.

Butun dunyoda tib ilmida katta o‘ringa ega bo‘lgan Ibn Sino bobomiz inson hayvondan aqlli va yili bilan farq qilishini, shuning uchun so’zga chechan inson barkamol inson deb o’rgatiladi. *Abu Nasr Farobiy* esa " Fozil insonlar shahri" asarida inson fozilligining asosiy belgilaridan bir sifati quvvai notiqa ya’ni , nutq quvvatini ajratadi. *Farobiy*ning fikricha, inson dunyoga kelishi bilan o‘zini boqadigan quvvatga ega bo‘ladi. Bu, albatta ilhomlantiruvchi quvvatidir. Undan so‘ng esa, inson o‘z yo‘lida turli manbalarga ega bo‘ladi. " *Mahmud Qoshqariy* " Devonu lug‘otit turk" asarida, odobning boshi tildir degan maqol bor. Albatta, odobimiz faqatgina hatti-xarakatimizda emas tilimizdan chiqayotgan so‘zlarimizga ham bo‘g‘liqdir. "Qutadg‘u bilig" dostonida "til odobi" haqida juda go‘zal hikmatlar bilan tanishsak

Nodonlik so‘zi o‘z boshini yedi
Aql ko‘rki so‘zdir va til ko‘rki so‘z,
*Kishi ko‘rki yuzdir bu yuz ko‘rki ko‘z"*1

Nutq madaniyati tilshunoslik yo'nalishlarining barchasi bilan bog'liq. Shuningdek, adabiyot estetika, etika, paixologiya, pedogogika singari fanlar bilan aloqadordir. Biz avvalo, nutqni bog'chadan yaxshi o'rganib uni to'g'ri qo'llay olishimiz, grammatik jihatdan to'g'ri ekanligiga e'tibor qaratishimiz zarur.

Nutq madaniyati haqida, uning hayotimizdagi o'rni haqida yuqoridagi ma'lumotlar orqali tanishib chiqdik. Ya'na shuni qo'shimcha qilib aytsam: nutq ikki xil; ichki va tashqi ko'rinishga ega. Ichki nutq passiv nutq bo'lib, bunda inson o'zi ishtirok etadi, boshqa insonlarga ehtiyoj tug'ilmaydi. Ichki nutq og'zaki va yozma nutq uchun asos bo'lsa tashqi nutq yozam va og'zaki ko'rinishga ega va boshqalarga nisbatandir. Yozma nutq harf va so'zlardan grammatik foydalansek, og'zakida tovushlar va ohanglar orqali aloqga kirishishimiz hisoblanadi. Biz og'zaki nutqdan odamlar bila muloqot qilish jarayonida foydalanamiz. Yozma nutqda esa, xat, kitob, asar, doston, raman, referat, ilmiy maqola tezislar kabilarni yozib boramiz. Og'zaki va yozma nutq, ularning ikkalasi ham biz uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. – Toshkent, 2023.
3. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Mahmudov N. Til va nutq. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.
5. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.
6. Sattorov T. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent.

7. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.

8. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.

9. Hasanboyeva O. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2011.

10. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.